



XITOIY VA O'ZBEK TILLARIDA VOSITASIZ TO'LDIRUVCHINING IFODALANISHI

Abdivaliyev Shohrux Abdivali o'g'li

Xitoyshunoslik fakulteti, Xitoy filologiyasi kafedrası
2-kurs magistranti

A.A. Karimov

Ilmiy rahbar: f.f.n , prof

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8019434>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-June 2023 yil

Ma'qullandi: 05-June 2023 yil

Nashr qilindi: 09-June 2023 yil

KEY WORDS

To'ldiruvchi, vositasiz
to'ldiruvchi, 宾语-binyu, 受词-
shouci, ega, kesim, kelishiklar,
ko'makchilar, ot, olmosh, so'z
birikmasi, sintaktik kompleks,
amorf va agglyutinatív tillar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek va xitoy tillarida vositasiz to'ldiruvchining o'rne va har ikki tildagi farqli tomonlari haqida so'z yuritiladi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, vositasiz to'ldiruvchini o'rganish masalalari nafaqat o'zbek tilida, balki xitoy tilida ham keng o'rganilishi kerak bo'lgan muhim va dolzarb mavzulardan biridir. Har ikkala tildagi to'ldiruvchilarni qiyosiy tadqiq etish, mavzuni yanada tushunarli va aniqroq bo'lishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari maqolada ikki til doirasida gap qurilishi, to'ldiruvchilarni ifodalashda kelishiklar va to'ldiruvchini ifodalashda ishlatiladigan birliklar ko'rib chiqildi Tadqiqotimiz ishonchli va obyektiv bo'lishi uchun biz rus xitoyshunos olimlari va o'zbek tilshunoslarining adabiyotlaridan foydalandik hamda misollar keltirdik.

Zamonaviy xitoy tilini tahlil qilishda ilmiy doiralarda to'ldiruvchi haqida turli xil fikrlar mavjud. Xitoy tilida to'ldiruvchilar va to'liqllovchilarni ko'pincha aralashtirib o'rganiladi. Ayrim olimlar fe'dan keyin kelgan barcha elementlarni to'ldiruvchi deb hisoblaydilar, ba'zi olimlar ularni bir turdagi element sifatida qarash mumkin deb hisoblaydilar, lekin ularni to'ldiruvchi deb hisoblamaydilar va bunday elementlarni "to'liqllovchi" deb atash mumkin degan xulosalarni ham beradilar. Ayrim olimlar ikkinchisi "tobe" bo'lib, ergash gap sifatida ishlatilishi mumkin deb hisoblashadi. Biz tadqiqotimiz davomida turli materiallar, ilmiy ishlar bilan tanishib chiqdik va tahlil qilib bo'lgach, olimlarning to'ldiruvchilar haqidagi tushunchalarini xronologik tartibda sanab o'tishni lozim topdik.

1983- yilda janob Lü Jiping "Xitoy grammatikasining asoslari" maqolasida shunday deb yozadi: "Gapda, kesim tomonidan boshqariladigan yoki cheklangan obyekt sifatida nima? yoki kim? savollariga javob beradigan fe'lning postpozitsiyasi to'ldiruvchi deb ataladi."¹ 2006-yilda Xu Yushu "Zamonaviy xitoy tili" kitobida kesim-to'ldiruvchi guruhi ikki qismdan iborat bo'lib, ular o'rtasida hokim va tobelik kabi munosabatlar mavjud deb hisoblagan. 2007-yilda Chju Dexi "Grammatika bo'yicha ma'ruzalar" asarida kesim va to'ldiruvchi ma'no va tuzilish jihatidan chambarchas bog'liqligi haqida so'z yuritar ekan, ularning o'rne gapda doim yonma-

¹吕冀平. 汉语语法基础. 黑龙江人民出版社. 1983: 32页

yon va bir biriga mutanosib holda joylashish pozitsiyasiga egaligi haqida fikr bildirgan. Xususan u to'ldiruvchi haqida shunday fikrlarni ham ilgari surgan. Ya'ni:

1) To'ldiruvchi ish-harakatni qabul qiladi. Masalan: 擦玻璃 [Cā bōlí] *Oynani artmoq*; 吃苹果 [Chī píngguǒ] *olmani yemoq*.²

2) To'ldiruvchi harakat bajaruvchi vosita. Masalan: 来客人 [Lái kèrén] *Mehmon kelmoq*.

3) To'ldiruvchi ish-harakat natijasidir. Masalan: 盖房子 [Gài fángzi] *uy qurmoq*;
写信 [Xiě xìn] *xat yozmoq*

4) To'ldiruvchi harakatning yakuniy nuqtasidir. Masalan: 上广州 [Shàng guǎngzhōu] *Guanchjoga bormoq*; 进医院 [Jìn yīyuàn] *shifoxonaga yotmoq*.

5) To'ldiruvchi ish-harakat vaqtining davomiyligini ifodalaydi. Masalan: 住三天 [Zhù sān tiān] *Uch kun yashamoq*; 等一会几 [Děng yī huǐ jǐ] *biroz kutmoq*.

To'ldiruvchi o'zi birikayotgan fe'lning tabiatiga ko'ra vositali va vositasiz turlarga ajraladi.³

Predmetga ishora qiluvchi vositasiz to'ldiruvchi deb nomlanadi va xitoy tilida bu 直接宾语 deb ataladi. Vositasiz to'ldiruvchi gapda vositali to'ldiruvchidan keyin keladi (agarda gapda ham vositali ham vositasiz to'ldiruvchi ishtirok etgan hollarda, albatta). O'zbek tilida vositasiz to'ldiruvchi harakatni o'ziga qabul qilgan, harakat bevosita o'ziga o'tgan predmetni bildiradi va *kimni? nimani?, qayerni?* so'roqlariga javob bo'ladi. Bu to'ldiruvchi ko'pincha tushum kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi, bunda u harakatni butunlay o'ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi. Xitoy tilida vositasiz to'ldiruvchi harakatni butunlay o'ziga qabul qilgan predmetni ifodalab keladi. Ba'zi fe'llardan so'ng ikkita to'ldiruvchi kelishi mumkin, ulardan biri shaxsni, biri esa predmetni ko'rsatib keladi. Shaxsni ifodalovchi vositali to'ldiruvchi, predmetga ishora qiluvchi vositasiz to'ldiruvchi hisoblanadi. Vositasiz to'ldiruvchi vositali to'ldiruvchidan so'ng keladi.

Masalan,

张老师教我们汉语 [Zhāng lǎoshī jiào wǒmen hànyǔ.] *Ustoz Zhang bizga xitoy tilini o'qitadilar.*

Ushbu gapda 汉语 predmetni ifodalab kelmoqda, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan.

刚才小李告诉一个好消息, 你想听吗?

[Gāngcái xiǎo lǐ gàosù yīgè hǎo xiāoxī, nǐ xiǎng tīng ma?]

Hozirgina Syao Li menga bir yaxshi xabar aytdi, sen eshitishni istaysanmi?

Ushbu gapda 消息 predmetni ifodalab kelmoqda, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan.

你借我一点钱可以吗? [Nǐ jiè wǒ yīdiǎn qián kěyǐ ma?] - *Menga ozgina qarz berib tura olasanmi?*

Ikki to'ldiruvchiga ega bo'lib kela oladigan fe'llar ko'p emas, ulardan asosiylari quyidagilar: 给 [gěi] -bermoq, 送 [song] -sovg'a qilmoq, 租 [zū] -ijaraga olmoq/bermoq, 借 [jiè]-qarzga bermoq/olmoq, 卖 [mài] -sotmoq, 换 [huàn] - almashtirmoq, 告诉 [gàosù] -aytmoq, 通知

² 朱德熙“语法讲义”北京.1982年. 110 页

³ M.Qurbonova "O'zbek tilining struktural sintaksisi (o'quv qo'llanma)" Toshkent – 2004. 86 b.

[tōngzhī] -xabardor qilmoq, 报告-[bàogào] -xabar bermoq, 求 [qiú] -yordam so'ramoq, 教 [jiào] -o'qitmoq, 问-[wèn] - so'ramoq, 请教 [qǐngjiào] -savol sovrarmoq, 赔 [péi]-qarzini to'lamoq, 称 [chēng] -atamoq, 叫 [jiào] - chaqirmoq va boshqalar .⁴

告诉 [gàosù] -aytmoq, 通知 [tōngzhī] -xabardor qilish, 求 [qiú] -yordam so'ramoq va boshqa fe'llar gapda kesim bo'lib kelganda, ulardan so'ng vositali to'ldiruvchi kelishi shart, vositasiz to'ldiruvchi tushirib qoldirish ham mumkin yoki gap boshiga qo'yishimiz mumkin. Masalan :

1. A :这件事我可以告诉老王吗? B : 你告诉他吧。

A: [Zhè jiàn shì wǒ kěyǐ gàosù lǎo wáng ma?] B: [Nǐ gàosù tā ba.]

A : *Bu masalani Laowangga aytsam bo'ladimi?* B : *Sen unga aytaqol.*

2. 明天早上开会。我通知你了，你可别忘了。

[Míngtiān zǎoshang kāihuì. Wǒ tōngzhī nǐle, nǐ kě bié wangle].

- *Ertaga ertalab majlis. Men senga aytdim , sen unutmagin .*

Birinchi gapda 他 , ikkinchi gapda 你 olmosh turkumiga oid so'zlar vositali to'ldiruvchi vazifasini bajarib kelmoqda. Ular kesimdan so'ng kelib, vositasiz to'ldiruvchi 这件事 gap boshida kelmoqda.

Ushbu fe'llardan so'ng faqatgina vositasiz to'ldiruvchi kela olmaydi. Masalan :

他告诉一个新情况。× *U bir yangi habar aytdi.*

我求一件事 × *Men bitta masala so'radim.*

Bunday ifodalash noto'g'ri hisoblanadi.

租 [zu] -ijaraga olmoq/bermoq, 借 [jie] -qarzga bermoq/olmoq fe'llari qatnashgan gaplarda ushbu fe'llardan so'ng vositasiz to'ldiruvchi kelishi shart, vositali to'ldiruvchini tushirib qoldirish mumkin. Masalan :

1. 我想租(你)一间屋子。

2. 他已经借了(我)那么多钱了，还不够吗?

Birinchi gapda 一间屋子 va ikkinchi gapda 那么多钱 so'z birikmalari

vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelmoqda.

Yuqoridagi fe'llardan so'ng faqatgina vositali to'ldiruvchi kelishi mumkin emas.

这间屋子我想租你 ×

很多钱他借了我 ×⁵

⁴实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-465.

⁵实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-465,466.

教 [jiao]-o'qitmoq, 问 [wen]-so'ramoq, 请教 [qingjiao]-maslahatlashmoq, [pei]-qarzini to'lash, 给-gei-bermoq, 还-huan-qaytarib bermoq fe'llari kelgan gaplarda , ushbu fe'llardan so'ng vositasiz to'ldiruvchi ham vositali to'ldiruvchi ham kelishi mumkin.

1. 这些钱是他给我的

[Zhèxiē qián shì tā gěi wǒ de]. – *Bu pullarni u menga berdi.*

Ushbu gapda 我- vositali to'ldiruvchi, olmosh bilan ifodalangan.

2. 他给两千块钱 [Tā gěi liǎng qiān kuài qián]. – *U ikki ming so'm berdi*

两千块钱- vositasiz to'ldiruvchi, hisob so'zli birikma bilan ifodalangan.

3. 王老师教我 [Wáng lǎoshī jiào wǒ]. – *Ustoz Van menga dars beradilar*

Ushbu gapda 我 so'zi vositasiz to'ldiruvchi bo'lib, olmosh so'z turkumiga oid so'z, ya'ni kishilik olmoshi bilan ifodalangan. Bir to'ldiruvchili gap hisoblanadi.

4. 王老师教数学 [Wáng lǎoshī jiào shùxué]. – *Ustoz Van matematikani o'rgatadilar.*

Ushbu gapda 数学 so'zi vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelmoqda, to'ldiruvchi ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan.

5. 别担心,我陪你 [Bié dānxīn, wǒ péi nǐ]. – *Sen qayg'urma , men senga to'layman.*

Ushbu gapda 你 so'zi vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelmoqda, to'ldiruvchi olmosh so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan

6. 我赔一千, 你赔一千, 可以吗? [Wǒ péi yīqiān, nǐ péi yīqiān, kěyǐ ma?] – *Men bir ming , sen bir ming so'm to'laysan, bo'ladimi?*

Mazkur gapda 一千 so'zlari vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelib, son so'z turkumiga oid so'zlar bilan ifodalangan.

称[cheng] - atamoq;nomlamoq,叫-jiao-chaqirmoq, atamoq fe'llari qatnashgan gaplarda, fe'ldan so'ng ikkita to'ldiruvchi kelishi shart bo'lib, bittasi bo'lmasa mumkin emas, gap xato hisoblanadi.

Masalan :

1. 人们都叫他无事忙 [Rénmen dōu jiào tā wú shì máng]. *Odamlar uni bekorchi narsalar bilan band bo'ladigan deb atashadi.*

Yuqoridagi gapda fe'ldan so'ng ikkita to'ldiruvchi kelmoqda. 他 va 无事忙so'zlari, birinchi to'ldiruvchi olmosh so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan bo'lib, ikkinchi to'ldiruvchi esa otlashgan sifat bilan ifodalangan. Ushbu ikki to'ldiruvchi birgalikda murakkab to'ldiruvchilardir.

Xuddi shunday misollarni o'zbek tilida ham keltirishimiz mumkin, ya'ni ona tilimizda vositasiz to'ldiruvchini bir necha so'z turkumlari bilan ifodalay olamiz. Masalan: 1) Ot bilan: *Yosh havaskorlar ashulani zavq bilan aytdilar.*

2) Olmosh bilan: *Sizni chaqirishyapti.*

3) Otlashgan so'zlar bilan:

otlashgan sifat bilan: *Yaxshini maqtasang yarashadi. otlashgan*

son bilan: *Uchni*

o'nga ko'paytiring. otlashgan sifatdosh bilan: *Bo'linganni bo'ri yer.* otlashgan ravish bilan: *Ko'pini sizdan o'rgangan.* otlashgan taqlid so'z bilan: *Etigining g'arch-g'urchini eshitdi.*
otlashgan undov so'z bilan: *Oh-vohini hech kim sezmasin.*
otlashgan modal so'z bilan: *Borini sarfladi.*

4) Ibora bilan: *O'ziga bironing oz-moz til tekizishini ko'tarmasdi.*

5) So'z birikmasi bilan: *Sen ko'rganni u ham ko'rgan.*

Vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishik qo'shimchasisiz ham qo'llanadi:

Masalan: *O'quvchilar hozir kitob o'qishyapti.*

Vositasiz to'ldiruvchi o'zbek ba'zan chiqish kelishigidagi so'z bilan ham ifodalanadi, bunda u harakatni qisman o'ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydi:

Qani oshdan oling!

Quyidagi gaplar xato hisoblanadi, chunki fe'ldan so'ng bitta to'ldiruvchi kelgan. Yuqorida aytib o'tganimizdek, mazkur fe'llar bilan gapda ikkita to'ldiruvchi qatnashishi shart, aks holda gap xato hisoblanadi, bunday qo'llash mumkin emas.⁶Masalan :

*无事忙人们都叫他 *[Wú shì máng rénmen dōu jiào tā].

*他人们都叫无事忙 *[Tā rénmen dōu jiào wú shì máng].

2. 附近的人都称他师傅 [Fùjìn de rén dōu chēng tā shīfù]. – *Yaqin kishilar uni ustoz deb ataydilar.*

Yuqoridagi gapda fe'ldan so'ng ikkita to'ldiruvchi kelmoqda. 他 va 师傅so'zlari , birinchi to'ldiruvchi olmosh so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan bo'lib, ikkinchi to'ldiruvchi esa ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan. Ushbu ikki to'ldiruvchi birgalikda murakkab to'ldiruvchilardir. Har biri alohida vositasiz to'ldiruvchi hisoblanadi.

Quyidagi gaplar xato hisoblanadi, chunki 称 fe'li bilan yuqorida aytib o'tganimizdek ikkita to'ldiruvchi kelishi shart.

他附近的人都称师傅 [Tā fùjìn de rén dōu chēng shīfù].

师傅附近的人都称他. ⁷ [Shīfù fùjìn de rén dōu chēng tā].

Xitoy tilida vositasiz to'ldiruvchining gapdagi o'rni:

1) kesimdan so'ng kelgan holatda

我喝咖啡 [Wǒ hē kāfēi] – *Men qahva ichaman.*

Xitoy tilida vositasiz to'ldiruvchi gapda odatda kesimdan so'ng keladi. Ushbu gapda 咖啡 so'zi vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelib, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan. 喝 gapning kesimi bo'lib, fe'l-kesim hisoblanadi, vositasiz to'ldiruvchi kesimdan so'ng kelgan.

2) egadan oldin kelgan holatda

⁶刘月华等著.使用现代汉语语法.- 北京：商务印书馆，2001.-143页。

⁷实用现代汉语语法/刘月华等著.-增订本.-北京:商务印书馆,2004.-页-466.

To'ldiruvchi egadan oldin qo'yilsa, gap emotsional bo'yoqdorlikka ega bo'ladi, shu o'rinda to'ldiruvchiga alohida urg'u beriladi. Tarjimada ham alohida ajratiladi:

这本书我已经买了! [Zhè běn shū wǒ yǐjīng mǎi le]. – *Bu kitobni men allaqachon sotib oldim.*

Vositasiz to'ldiruvchi gapda egadan oldin kelishi ham kuzatiladi. Ushbu gapda 书 so'zi vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelib, ot so'z turkumiga oid so'z bilan ifodalangan. 买gapning kesimi bo'lib, fe'l-kesim hisoblanadi, vositasiz to'ldiruvchi egadan oldin kelib, to'ldiruvchiga alohida urg'u bermoqda. Aynan belgilash, ko'rsatish, bo'rttirish uchun shunday qo'llanilgan.

3) ega va kesim orasida kelgan holatda

Bunday sharoitda 把 bǎ ko'makchisini qo'llash lozim. Masalan :

我把这些汉字写错了! [Wǒ bǎ zhè xiē hàn zì xiě cuò le]. – *Men bu iyerogliflarni xato yozdim.*

Bu gapda to'ldiruvchi o'rnida kelgan so'zga urg'u berilayotganligini ham ko'rishimiz mumkin.

汉字 gapda vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelib, ot so'z

turkumiga oid so'z bilan ifodalangan.

Bunday gaplarni inkor shaklga aylantirish uchun 没 méi inkor yuklamasi qo'llaniladi. Masalan :

我没把这些汉字写错了[Wǒ méi bǎ zhè xiē hàn zì xiě cuò le]. – *Men bu iyerogliflarni xato yozganim yo'q.*

Tasdiq gaplarda 把 [bǎ] old ko'makchisidan oldin 没 [méi] inkori emas, 不 [bù] qo'llaniladi.

我不想把这本书还给他 [Wǒ bù xiǎng bǎ zhè běn shū huán gěi tā]. – *Bu kitobni men unga qaytarib bergim kelmaypti.*

Mazkur gap to'ldiruvchisi 书 so'zi bo'lib, ot so'z turkumiga oid so'z bilan

ifodalangan, gap inkor shaklda bo'lib, yuqorida aytib o'tganimizdek inkor yuklamasi fe'ldan oldin keladi.

O'zbek tilida xususan, "vositasiz to'ldiruvchi" atamasi ostida o'timli fe'lga tobelanib belgili yoki belgisiz shaklida qo'llangan so'z shakl va uning sintaktik vazifasi tushiniladi. Vositasiz to'ldiruvchining belgili yoki belgisiz bo'lishi grammatik holatga va mazmunga asoslanadi. An'anaviy tilshunoslik bu ikki tur orasidagi farqni quyidagicha tushuntiradi: vositasiz to'ldiruvchiga tinglovchi va so'zlovchiga avvaldan ma'lum bo'lgan predmetni ifodalasa belgili; shu turdagi predmetni umuman (aniqlantirmay) ifodalasa belgisiz bo'ladi. Masalan:

-*Kitobni keltirdi.*

-*Kitob keltirdi.*

Demak, o'zbek tilida vositasiz to'ldiruvchi hokim so'z talabi bilan boshqaruvli, bitishuvli munosabatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Va shuni ham ta'kidlab o'tishimiz joizki, o'zbek tilshunosligida vositasiz to'ldiruvchining bunday ma'no xususiyatlarini aniqlash, chegaralash, sanashga bag'ishlangan anchagina tadqiqot ishlari mavjud. Bundan tashqari to'ldiruvchi (xoh vositali, xoh vositasiz) gapning lisoniy abstrakt, mavhum qurilish andazasi bilan emas, nutqiy gapda voqealangan so'zning ma'naviy xususiyatlari bilan bog'liq. Shuning uchun to'ldiruvchilar, asosan, markazdagi fe'l leksemalar bilan ifodalangan nutqiy gaplarda keng qo'llaniladi. Yana shuni ta'kidlash mumkinki xitoy tilida ham o'zbek tilida ham

to'ldiruvchilarning vositasiz to'ldiruvchini ifodalovchi old ko'makchisiz (o'zbek tilida kelishik) qo'llash mumkin. Ayniqsa bu holat og'zaki nutqda ko'p qo'llaniladi.;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, A. A. (2022). The Problem Of The Grammatical Category Of The Chinese Language. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 5, 226-229.
2. M. Hamroyev. "Ona tili", Toshkent., 2007., 276 b
3. В.И. Горелов. "Грамматика китайского языка". М. Просвещение. 1974 г. Стр 280
4. Каримов, А. А. (2021). "СООТНОШЕНИЕ ПОНЯТИЙНОГО И АССОЦИАТИВНОГО НАЧАЛО В ИЕРОГЛИФИЧЕСКОМ ПИСЬМЕ (на примере иероглифа 日 «солнце»)». Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1), 76-81.

